ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY G‘URUR HISSINI MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI TARBIYALASH TEXNOLOGIYASI.

Angren universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi
o‘qituvchisi: ***M.A. Giyasova.***
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi, 3 bosqich talabasi: ***Abdusoatova Nilufar.***

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishda milliy harakatli o‘yinlarni o‘ynalish jarayonida kreativ yondoshgan holda tushunchalar berish orqali tarbiyalash texnologiyasi yoritildi.

Kalit so‘zlar: O‘yin, milliy harakatli o‘yin, jismoniy rivojlanish, milliy g‘urur, ta’lim va tarbiya, katta yoshdagi bola.

ТЕХНОЛОГИЯ ВОСПИТАНИЯ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПОДВИЖНЫХ ИГР.

Англенский университет, кафедра педагогики и психологии
Преподаватель: М.А. Гиясова.
Дошкольное образование, ученица 3 класса: Абдусоатова Нилуфар.

Аннотация

В данной статье освещена технология воспитания посредством подачи понятий с творческим подходом в процессе игры в национальные подвижные игры в формировании чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Игра, национальная подвижная игра, физическое развитие, национальная гордость, образование и воспитание, ребенок старшего возраста.

TECHNOLOGY OF FOSTERING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN OLDER PRESCHOOL CHILDREN THROUGH NATIONAL MOVEMENT GAMES.

Angren University, Department of “Pedagogy and Psychology”
Teacher: M.A. Giyasova.
Preschool education, 3rd year student: Abdusoatova Nilufar.

Annotation.

In this article, the technology of education by giving concepts with a creative approach in the process of playing national action games in the formation of a sense of national pride in children of preschool age was highlighted.

Keywords: Game, national outdoor game, physical development, national pride, education and upbringing, an older child.

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tashabbusi, tinimsiz say’harakatlari bilan respublikamizda har tomonlama yetuk “Barkamol avlod, komil insonni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Barkamol avlodni har tomonlama yetuk sog‘lom qilib tarbiyalash hamisha insoniyatning eng ezgu eng ulug‘ orzularidan biri bo‘lib hisoblanib kelingan. Davlatimiz raxbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida so‘zlagan nutqida “Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri-

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

iqtisodiyot, biri-ma'naviyatdir. Ma'naviy buyuk xalq –iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi", degan murojati bejizga emas.

Darhaqiqat, yosh avlodda milliy g'urur hissi tuyg'usini shakllantirish lozim. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, sog'lom bilimli va fidoyi ma'nan boy jismonan baquvvat farzandlari bo'lgan xalq, albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ma'nan boy, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga sifatli tayyorlashdan iborat. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhum yondoshuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofdagi dunyoni bilishga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhumligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdgi pedagogik imkoniyatlarini tan oladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirilishiga qaratilgan yaxlit jarayonda o'yin faoliyati natijasida faollashgan bo'ladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning o'yinlari asosan taqlid qilishdan iborat. Bola tevarak atrofdagi borliqni kuzatadi, uning elementlarini o'yinga kiritadi va shu o'yin orqali o'zini qurshab turgan olamni tushuna boshlaydi. Bolalarda turmush hodisalariga muayyan munosabat paydo bo'ladi. Bolalar turmushdagi, mehnat asosidagi xatti-harakatlarga, tabiat hodisalari va jonivorlar hayotiga qiziqish bildiradi asta –sekin hayotiy tajriba orttiradi. O'yin o'ynash jarayonida bola o'zi istagan qahramonga aylanadi mehribon, oliy janob, jasur jangchi, shifokor kabi bo'ladi. Bola shaxsining barcha qirralari zavqlanib berilib o'ynayotgan o'yinida ochiladi. Ruhiyatida yangi yanada yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishga tayyorlanadigan sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu yoshda o'yinlar ancha murakkab syujet bilan ajralib turadi. Ijtimoiy hayotning turli hodisalari aks etadi: o'yinlarda bevosita kuzatuvlardan va bilvosita kitob o'qib eshittirilishdagi jarayondan so'ng savol javoblar suhbatidan so'ng olingan tasavvurlar ulanib ketadi. Bu yoshda bolalar qiziquvchan yoshda bo'lganligi bois milliy harakatli o'yinlar tarbiyaning eng ta'sirchan, yosh avlodni jismoniy kamol toptirish,ularning aqliy, ahloqiy nafosat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda milliy harakatli o'yinlarni qo'llashning ahamiyati asosiy o'rin egallaydi.

Mariya Montessori fikriga ko'ra maktabgacha katta yosh davri "Shimuvchi ong" deyiladi. Bu davr insonning rivojlanishi bosqichlarining eng muhim bosqichi sanaladi. Dastlabki poydevor aynan shu davrda mustahkam egallanishiga zamin yaratib berilmog'i lozim. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan say'harakatlar o'z natijasini beradi. Xalqimizda: "Sog' tanda-sog'lom aql" degan naql bor. Bu insonning jismi salomat bo'lsa, uning ilm olish ma'naviyatini yuksaltirish imkoniyatlari ham shunchalik yaxshi bo'ladi degani. Necha ming yillardan beri o'ynalib kelinayotgan milliy harakatli o'yinlarimiz timsolida bu masalaga ota-bobolarimiz naqdar e'tibor bilan qaraganlariga amin bo'lamiz. O'zbek milliy o'yinlari nihoyatda qadimiy ularni haqli ravishda ajdodlarimiz tafakkurining mevasi deyishimiz mumkin. Albatta ularda xalqimizga xos tantilik, mardlik, g'ayrat va shijoatlilik fazilatlari o'z ifodasini aks ettirganlar. Tarix manbalaridan ma'lumki, bundan uch-to'rt ming yillar muqaddam hozirgi Smarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari hududlarida yashagan ota-bobolarimiz harbiy-sport o'yinlari yugurish, kamondan o'q otish, kurash bilan jiddiy shug'ullanganlar. Ularning botirliklari ham piyoda, ham otda yurib ko'rsatgan qahramonliklari yetti

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

iqlimga yoyilgan. Bu an'ana ajdoddan avlodga o'tib, keyinchalik temuriylar, boburiylar, davrlarida ham davom etgan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga milliy harakatli o'yinlar ermak uchun o'ynatilmay balki, xalqimizning asrlar mobaynida jamlagan ma'naviy merosi durdonalari javohirlari bo'lib, xizmat qiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy gu'rur hissini milliy harakatli o'yinlar orqali tarbiyalash ancha murakkab jarayonni talab etsada o'zbek elining donishmandligini qarangki har bir o'yin, avvalo soda, qiziqarli mazmunbaxsh etishi bilan o'yin orqali bola qalbida milliy g'urur hissi, mehr-oqibat, mardlik, vatanparvarlik, insoniylik, qadriyatlarimizga vafo ruhida tuyg'ularni tarbiyalash yoingki, maktabgacha ta'lim tarbiyachisining balki, ota-ona va jamiyatning oldidagi umuminsoniy burchi hisoblanadi. Ta'lim va tarbiyaning bunday uyg'unligi kelajak avlodimizning davomchilari bo'lgan farzandlarimizning yetuk bo'lishi uchun dasturilamal xizmat qiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar o'ynaydigan o'yinlari orasida milliy harakatli o'yinlarni qo'llashda shuni inobatga olish kerakki, bu yoshda bolalar betakrorlikni, aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga nisbatan, kuchli harakatlarga moyil bo'ladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga baynalminal tarbiya berish maqsadida ularga turli qo'shiqlar, raqslar, o'yinlar o'rgatish orqali mamlakatimizda yashaydigan barcha xalq vakillarini xurmat qilishga o'rgatib borilmoqda. Milliy o'ziga xos o'yin folklori na'munalari bilan tanishish va ba'zi bir xalq milliy o'yinlarini bolalar hayotida qo'llash natijasida tarbiyalanuvchilarda vatanga muhabbat tuyg'usi, milliy g'urur hissi qaror topadi. Xalqimizning an'ana va urf odatlarini buyuk qadriyatlarini e'zozlash hissi yanada jush uradi. Milliy harakatli o'yinlar kattayu kichikni birdik o'zbekona tarbiyalashning vositasi hisoblanadi. Milliy harakatli o'yinlar o'zining xilma-xilligiga qaramasdan umumiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning milliy harakatli o'yinlar o'ynashidagi ishtiroki bolalar irodasini tarbiyalashni ta'minlaydi, ma'naviy sifatlarini oshiradi ya'ni kattalarga hurmat kichiklarga izzat ko'rsatishni ko'zda tutadi. O'zbek milliy harakatli o'yinlari o'zining uzoq o'tmishi, boy tarixiga ega bo'lgan ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib qadrlanib kelayotgan ma'naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi. Biz faxrlanib, g'ururlanib ayta oladigan milliy harakatli o'yinlarning turlari ko'p. Ulardan xo'rozlar jangi, besh tosh, mak-mak, arqon tortish, durracha, oshiq, kurash, uloq, ko'pkari, zar qalpoq kabi o'yinlar. Ochiq havoda o'ynaladigan o'yinlardan xo'rozlar jangi o'yinini o'g'il bolalar mazza qilib o'ynaydilar.

O'yinning borishi: bu o'yinning maqsadi bolalarni diqqatli bo'lishga chorlaydi, irodaviy kuchli sabrli bo'lishga undaydi. Bu o'yinda uch nafar va besh nafar o'g'il bolalar ishtirok etadi. Ulardan bittasi o'rta boshi bo'ladi qolgan bolalar esa jangchi xo'rozlar bo'ladi. O'yin uchun katta aylana chiziladi guruhdagi qolgan o'g'il bolalar dumaloq bo'lib o'rtoqlarini qo'llab olqishlab turadilar, o'rta boshi o'yin boshlandi degandan keyin o'yin boshlanadi. Ishtirokchilar bir oyoqlab turib bir –birlarini yelkalari bilan turtushlari kerak. O'yin davomida bolalar go'yoki jangari xo'rozlardek ovoz chiqaradilar. Aylanadan chiqib ketgan ishtirokchi mag'lub bo'ladi oxirida kim qolsa o'sha ishtirokchi g'olib bo'ladi bu o'yinda g'irromlik bo'lmaydi o'rta boshi o'yinni nazorat qilib turadi. Bunday o'yinlar ikki guruhga bo'linadi.

1.Milliy harakatli o'yinlar

2.Milliy xalq o'yinlariga bo'linadi.

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. Bunday o'yinlar bolalarning jismonan baquvvat, sog'lom, qat'iyatli, chaqqon bo'lib o'sishlarida muhim omil hisoblanadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Milliy xalq o‘yinlarida millatning o‘tmishi tarixi, ma’naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlari, an’analari jamlangandir.

Xalq milliy o‘yinlarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim.

- Xalq milliy o‘yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo‘llari, usullari, hamda uslublarini ishlab chiqish;
- Milliy o‘yinlarni tashkil etishda ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq milliy o‘yinlaridan maqsadli foydalanish;
- Xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;
- Bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- Maktabgacha ta’lim tashkiloti oila va mahallalar o‘rtasida milliy o‘yinlar bo‘yicha ko‘rik tanlovlar va musobaqalar o‘tkazish.

Xalq harakatli o‘yinlarini tashkil etish va bolalarga o‘rgatishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur.

1. Bolani ruhiy jihatdan o‘yinga tayyorlash.
2. O‘yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi yosh xususiyatlariga e’tibor berish.
3. Har bir o‘yinning pedagogik tomonlarini nazoratdan qochirmaslik.
4. O‘yinlarni ijtimoiy foydali mehnat bilan bog‘langan holda hayotga tadbiq etish.
5. O‘yin davomida o‘zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash .
6. Jamoa bo‘lib birgalikda harakat qilish jamoa manfaatiga hurmat va e’tiborli bo‘lish.

Xulosa qilib shuni aytishim joizki o‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin maktabgacha katta yoshdagi bolalar hayotida muayyan o‘rin egallar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga ega. O‘yinni “bolalikning hamrohi” deb atash qabul qilingan. Mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Hozirgi texnologiyalar rivojlangan XXI asrda yashayotgan farzandlarimiz gadjetlardagi turli xil o‘yinlarni o‘ynashga ruju qo‘ygan nafaqat bolalar balki, kattalarning ham nigohidan joy olgan bu o‘yinlar. Gadjetlardagi o‘yinlar qiziqarli o‘yinlar bo‘lib tasavvurni kengaytirib aqlni charxlashi mumkin lekin jismoniy harakatsiz o‘yinlardir. Milliy o‘yinlarning bolani jamiyatga qo‘shishdagi o‘rnini hech nima bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Ushbu o‘yinlarda bola ham aqlan, ham ma’nan, ham jismoniy jihatdan rivojlanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning hayotiy faoliyati uchun milliy harakatli o‘yinlarning ahamiyati beqiyos. Bolalar ta’lim-tarbiya olish jarayonida, o‘z-o‘zini anglashida ham milliy harakatli o‘yinlarning tez-tez qo‘llanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Milliy harakatli o‘yinlar orqali milliy g‘urur hissini shakllantirib, o‘z vataniga bo‘lgan muhabbat uning tarixiga qiziqish va ota-bobolarimizdan qolgan merosni asrab avaylash tuyg‘usi shakllanib boradi. Zeri birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q” degan fikrlar bejizga aytilmagan.

Bola bamisoli loy, biz kattalar uni shaklga solamiz. Yaxshi kulol yaratgan asaridan estetik zavq oladi. Ishini eplay olmagan, ishining sir asrorini bilmagan kulol pishgan loyning xunukligidan bejirim emasligidan noliydi. Bola bamisoli oq qog‘oz, kattalar unga qanday “tasvir” chizishsa, qanday “asar” yozishsa shu bilan to‘ladi. Shunday ekan milliy g‘urur hissini, oliy janob fazilatlarni, insongagina xos oliy his-tuyg‘ularni, maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga hikoyalarni, ertak kitoblarni kattalar tomonidan o‘qib eshittirilib o‘rnak ko‘rsatish orqali ham ko‘zlangan maqsadga erishish samarali natija beradi. Kitob tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam bo‘lsa, uchib harakatlanib tursa, yuksak

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

parvoz sari intilishdan tolmaydi. Kitobga bo‘lgan qiziqish o‘sib ulg‘ayotgan kelajak avlodning ma’naviy dunyosini boyitishga beminnat xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘yin orqali ta’lim olish metodik qo‘llanma . Toshkent 2020
2. Yosh oila uchun ensiklopidiya. Hayot kitobi Toshkent 2o11
3. Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi va texnologiyasi N. N. Djamilova Toshkent Metodist nashriyoti 2023.
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya T. Usmonxodjayev. X. 4. Meliyev. M. Nuriddinova A. Olimov Toshkent –Chirchiq Shodlik nashriyoti 2019
5. Harakatli o‘yinlar T. Usmonxo‘jayev F. Xo‘jayev Toshkent O‘qituvchi 1992
6. Ijtimoiy siyosiy gazeta 2025
7. Kun.uz https://kun.uz
8. Arxiv.uz https://arxiv.uz